

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA XALQ BILAN MULOQOTGA OID QARASHLAR

Alibekova Hafiza Suvon qizi

*O'zDSMI “Madaniyat va san'at muassasalarifaoliyatini tashkil etish
hamda boshqarish ta'limgo'nalishi” 3-bosqich talabasi
hafizaalibekova766@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kaykovusning “Qobusnomा” asarida ilgari surilgan davlat va xalq hokimiyati boshqaruvi haqidagi g'oyalari tahlil qilinadi. Asardaadolat, rahbar fazilatlari, xalq bilan muloqot, davlat va xalq boshqaruvida bilimning o'rni kabi tushunchalar o'rganiladi. Ushbu g'oyalalar tarixiy manbalar — “Temur tuzuklari”, Nizom ul-Mulkning “Siyosatnoma”si, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev va muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlari bilan qiyosiy o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Qobusnomа, davlat boshqaruvi, xalq boshqaruvi,adolat, rahbar fazilatlari, xalq bilan muloqot, siyosiy tafakkur, Temur tuzuklari, Siyosatnoma, Konstitutsiya.

Annotation: This article analyzes Kaykovus's ideas about state and public administration put forward in his "Qobusnomа". The work studies concepts such as justice, leadership qualities, communication with the people, and the role of knowledge in state and public administration. These ideas are studied comparatively with historical sources - "Temur's Regulations", Nizam ul-Mulk's "Siyosatnoma", the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the works of our esteemed President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev and our esteemed first President Islam Abduganievich Karimov.

Аннотация: В данной статье анализируются идеи Кайковуса об управлении государственной и общественной властью, выдвинутые в его труде «Гобуснома». В труде исследуются такие понятия, как справедливость, лидерские качества, диалог с народом, роль знаний в государственном и общественном управлении. Эти идеи изучаются в сравнении с историческими источниками - «Уставами Темура», «Сиёсатнома» Низам уль-Мулька, Конституцией Республики Узбекистан, а также трудами нашего уважаемого Президента Шавката Миромоновича Мирзиёева и нашего уважаемого первого Президента Ислама Абдуганиевича Каримова.

Podshoh uchun eng yomon ish xalqning – gustog'lig'idur
(Kaykovus “Qobusnomа” 191- bet)

Kaykovusning “Qobusnomа” asari nafaqat o'g'liga axloqiy pand - nasihatlari, balki mamlakat va xalq boshqaruvi, rahbar fazilatlari, axloq va xalq bilan aloqalar bo'yicha keng qamrovli qo'llanmadir. Bu asar o'rta asr Sharq siyosiy tafakkurining yorqin namunasi

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

bo'lib, rahbar fazilati, mas'uliyati, xalq bilan muloqot madaniyati, adolat va axloqiy ustuvorliklarni yoritadi.

1. Davlat boshqaruvida adolat tamoyili.

"Qobusnoma"da adolat mamlakatning asosi sifatida ko'rsatiladi: "Agar podshoh adolat bilan ish tutsa, davlat barqaror bo'lur; agar zolim bo'lsa, taxtdan ajralur" (Qobusnoma, Toshkent: G. G'ulom nomidagi nashriyot, 1989, 58-bet). Ushbu fikrni Amir Temurning quyidagi fikrlari bilan izohlasak bo'ladi: "Adolat bilan ish tutgan sultonning davlati abadiy bo'ladi" (Temur tuzuklari, Toshkent: Yangi asr avlod, 2002, 31-bet). O'zbekiston Konstitutsiyasida ham ushbu fikr o'z aksini topgan: "Davlat xalq irodasiga asoslanadi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" (2-modda). Darhqiqat bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" da olib borilayotgan har tomonlama adolatli siyosat yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarning yaqqol dalilidir.

2. Rahbar fazilatlari va tarbiysi.

Kaykovus o'g'liga shunday nasihat qiladi: "Aqling bo'lsa, xalqning holidan xabardor bo'lgin, yomonlarni tanib, yomonlikdan yiroq bo'lgin" (Qobusnoma, 1989, 103-bet). Nizom ul-Mulk "Siyosatnoma"da shunday yozadi: "Rahbarning eng buyuk fazilati — dono, sabrli va adolatli bo'lishidir" (Siyosatnoma, tarj. Z. Ibrohimov, 195-bet). Hurmatli prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida shunday ta'kidlaydi: "Xalq bilan har kungi muloqot, ularning muammolarini bilish — rahbarning eng katta mas'uliyatidir" (Toshkent: O'zbekiston, 2021, 46-bet). Jumladan, davlat va xalq boshqaruvini amalga oshirayotgan rahbar bugun har sohada ilmli, adolatli, intiluvchan, doimo o'rganishda va izlanishda bo'lishi kerak. Zamonaviy bilim va texnologiyalardan xabardor bo'lishi, uning o'ziga yuklatilgan vazifalarni har tomonlama to'la – to'kis ado eta olishida ko'makchi bo'ladi.

3. Xalq bilan muloqot va mas'uliyat.

Kaykovus o'z asarida shunday fikrlarni keltiradi: "Agar podshoh bo'lsang, xalq ustidan emas, xalq bilan birga hukmronlik qilgin" (Qobusnoma, 1989, 76-bet). Yuqoridagi fikr O'zbekiston Konstitutsiyasining 14-moddasida quyidagicha o'z aksini topgan: "Davlat xalq irodasini ifodalaydi va unga xizmat qiladi." Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov esa: "Agar davlat rahbari xalq ishonchini qozonsa, u hech qanday qiyinchilikdan qo'rqlaydi" deb yozgan (Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 12-bet). Chunki, rahbar o'z burchini bajarar ekan, turli qiyinchiliklar va muammolarga duch kelishi mumkin. Ushbu rahbar o'z siyosati davomida uni ushbu lavozimga saylagan, munosib ko'rgan xalqning ishonchi va hurmatini qozonsa, xalq o'z yo'lboshlovchisini mana shu yo'lida doimo qo'llab – quvvatlaydi, turli qiyinchiliklar paytida unga ishonadi va yordamchi bo'ladi.

4. Boshqaruvda bilim va tajribaning o'rni.

Kaykovus mamlakat va xalq boshqaruvi bilimga asoslanishi kerak deb hisoblagan: "Har ishni aql bilan qilgin, ilm seni yuksak martabalarga olib chiqadi" (Qobusnoma, 1989, 24-bet). Nizom ul-Mulk ham shunday deydi: "Ilmlı rahbar — davlatning eng katta boyligidir" (Siyosatnoma, 243-bet). Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham shunday fikr bildiradi: "Ilm va bilim asosidagi rivojlanish bizning eng ustuvor yo'nalishimiz bo'lishi kerak" (Yangi O'zbekiston strategiyasi, 2021, 88-bet). Bugun O'zbekistonda ilmga va ilm yo'lidagi insonlarga berilayotgan yuksak e'tibor, mamlakatimizning tobora rivojlanib borayotgan porloq kelajagini belgilaydi. Davlatimiz yoshlarining hozir ilm yo'lida

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

erishayotgan yutuqlari va ko'rsatayotgan natijalari ushbu fikrlarimizning yaqqol misoli desak, hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

5. Qobusnomada axloqiy saboqlarining siyosiy ahamiyati.

Kaykovusning ko'plab axloqiy nasihatlari bugungi boshqaruvida juda ahamiyatli. Chunonchi, ushbu pand- nasihatlar bugungi kundagi zamonaviy rahbar va menejerlarimiz uchun ham dastur-ul amal bo'lib, rahbarlikda mas'uliyat, halollik va sabr-toqat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Rahbarlik — faqat unvon emas, balki xalqqa xizmat qilishga ma'naviy tayyorgarlikdir. Shuning uchun "Qobusnoma" kabi asarlar davlat boshqaruvida axloqiy qadriyatlarni singdirish uchun yorqin asos bo'ladi.

Ushbu asardan olgan xulosalarim shuki, "Qobusnoma" nafaqat o'z davrida dolzarb bo'lishi bilan birga, bugungi rahbarlar uchun ham muhim saboqlar beradi. Adolat, bilim, xalqparvarlik va halollik — bu tamoyillar hanuz assosiy yo'nalishlar bo'lib qolmoqda. Bu qadriyatlarni hayotga tatbiq etish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

"Qobusnoma", "Temur tuzuklari" va "Siyosatnoma"ni rahbarlar uchun malaka oshirish dasturlariga kiritish;

Ilmiy asoslangan boshqaruv tizimini mustahkamlash;

Rahbar va xalq o'rtaсидаги samimiylar va bevosita muloqotni rag'batlantirish. Yakuniy so'z o'rnida, "Qobusnoma"dagi g'oyalalar qadimiy xalq boshqaruvidagi bilimlar va zamonaviy davlat boshqaruvi yondashuvlarining uyg'unligini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1989. 24, 58, 76, 103-betlar.
3. A. Temur. Temur tuzuklari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. 31-bet.
4. Nizom ul-Mulk. Siyosatnoma. Tehron, tarj. Z. Ibrohimov, 1958. 195, 243-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil. 2- va 14-moddalar.
6. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021. 46, 88-betlar.
7. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 12-bet.